



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

IJTIMOYIY MEDIADAN FOYDALANISH ORQALI INGLIZ TILINI O‘QITISHDA MAVJUD QIYINCHILIKLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Sulaymanova Bumoxira Ahmadjonovna

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada ijtimoiy mediadan foydalanish orqali ingliz tilini o‘qitishda mavjud qiyinchiliklar va ularning yechimlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, maqolada bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida ijtimoiy media vositalari xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o‘qitish jarayonida samarali kommunikativ platformaga aylanib borayotganligi ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy media, ingliz tili, globallashuv, raqamli transformatsiya, kommunikativ platforma, madaniyat, kompetensiya.

СТРУДНОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СОЦИАЛЬНЫХ МЕДИА И ИХ РЕШЕНИЯ

Сулайманова Бумохира Ахмаджонова

Узбекский государственный университет мировых языков, независимый исследователь

Аннотация

В данной статье рассматриваются существующие трудности в преподавании английского языка с использованием социальных сетей и пути их решения. Также в статье с научной точки зрения освещается, что в современную эпоху глобализации и цифровой трансформации средства социальных сетей становятся эффективной коммуникативной платформой в процессе обучения иностранным языкам, в частности английскому.

Ключевые слова. Социальные сети, английский язык, глобализация, цифровая трансформация, коммуникативная платформа, культура, компетенция.

CHALLENGES OF TEACHING ENGLISH USING SOCIAL MEDIA AND THEIR SOLUTIONS

Sulaymanova Bumoxira Ahmadjonovna

Uzbekistan State World Languages University, Independent Researcher

Abstract

This article discusses the challenges in teaching English through the use of social media and their solutions. Additionally, the article scientifically highlights that in today's era of globalization and digital transformation, social media tools are becoming an effective communicative platform in the process of teaching foreign languages, particularly English.

Keywords. Social networks, English language, globalization, digital transformation, communication platform, culture, competence.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida ijtimoiy media vositalari xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o‘qitish jarayonida samarali kommunikativ platformaga aylanib bormoqda. Bir qancha ijtimoiy tarmoqlar talabalarga autentik til muhitida muloqot qilish, madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish va o‘z fikrini erkin ifodalash imkonini yaratadi. Shu bilan birga, ijtimoiy media orqali ingliz tilini o‘qitishning metodik imkoniyatlari keng bo‘lishiga qaramay, amaliyotda bir qator qiyinchiliklar ham mavjud.

Til o‘qitish jarayonida uchraydigan qiyinchiliklarni tasniflash nazariy-metodik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilar til o‘rganishdagi muammolarni turli yo‘nalishlarda izohlaydilar. S.C. Lancaster va F.M. Rabinovichlarning fikricha, chet tilini o‘rganishda makro darajadagi qiyinchiliklar ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog‘liq bo‘lib, ular orasida “tilni o‘rganishga bo‘lgan ijtimoiy bosim, stereotiplar va noto‘g‘ri qarashlar” muhim rol o‘ynaydi. Binobarin, ularning ta’kidlashicha, “jamiyatdagi umumiy fikr o‘quvchining ichki motivatsiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi”.

Tadqiqotchi J.C. Richards esa chet tilini o‘rganish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni uch guruhga ajratadi: lingvistik — grammatika, fonetika, leksika; psixologik — motivatsiya, ishonchsizlik, qo‘rquv; metodik — o‘qitish uslublarining mos kelmasligi. Uning fikriga ko‘ra, “til o‘rganishdagi eng katta to‘siq — bu o‘quvchilarning kommunikativ vaziyatda erkin ishtirok etishdagi qo‘rquvi” [1].

Shu o‘rinda tadqiqotchi D. Nunan bu haqda shunday yozadi: “Chet tilini o‘rganishdagi qiyinchiliklar ko‘pincha vazifaga asoslangan topshiriqlarda namoyon bo‘ladi, chunki o‘quvchilar grammatik va leksik materiallarni real nutqiy vaziyatga moslashtirishda qiynaladilar” [2].

Tadqiqotchi L. Vygotskiy esa til o‘rganishdagi psixologik muammolarni alohida ko‘rsatib, “o‘quvchi rivojlanishining yaqin zonasi” to‘g‘ri tashkil qilinmasa, ta‘lim jarayonida sustkashlik, tushunmovchilik va ortiqcha qiyinchiliklar yuzaga kelishini ta‘kidlaydi.

Olimlarning ushbu qarashlaridan ko‘rinadiki, chet tilini o‘rganishda qiyinchiliklar lingvistik, psixologik, metodik va ijtimoiy-madaniy omillar bilan chambarchas bog‘liq. Shu bois jurnalist talabalar ingliz tilini ijtimoiy media orqali o‘rganish jarayonida ham aynan shunday to‘siqlarga duch kelishi tabiiydir.

Bizningcha, yuqoridagi ilmiy qarashlardan kelib chiqib, jurnalist talabalar ingliz tilini ijtimoiy media asosida o‘rganishda uchraydigan qiyinchiliklarni quyidagi uchta asosiy toifaga ajratish mumkin:

Shu o‘rinda ta‘lim jarayonida keng uchraydigan interferensiya hodisasiga ham to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Tilshunos olimlar A. Xo‘jayev va M. Dzhusupov interferensiyani lingvistik xatolik sifatida ko‘rishadi. Ya‘ni u o‘rganuvchining ona tilidan ikkinchi tilga “grammatik, fonetik yoki leksik me‘yorlarni o‘tkazib yuborishi” [3] natijasida yuzaga keladi. Shu ma‘noda interferensiya til o‘rganuvchiga bog‘liq qiyinchiliklar guruhiga kiradi.

Agar o‘qituvchi xorijiy tilni o‘qitish jarayonida kontrastiv metodikaga yetarli e‘tibor bermasa, ya‘ni ona tili va o‘rganilayotgan til o‘rtasidagi farqlarni izchil tushuntirmasa, interferensiya kuchayadi. Bu holatda interferensiyani pedagogik-metodik qiyinchiliklar tarkibiga ham kiritish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Ko‘plab tadqiqotlarda interferensiya lingvistik qiyinchiliklarning asosiy turi sifatida qayd etiladi. Masalan, I.R. Galperin va M.R. Lvov ishlarida tilni o‘rganishda interferensiya talaba xatolarining eng keng tarqalgan sababi sifatida ko‘rsatiladi. Demak, umumiy tasnifda interferensiya, avvalo, “til o‘rganuvchiga bog‘liq qiyinchilik” sifatida ko‘riladi, chunki u talabaning ona tilidan kelib chiqadigan avtomatik ta‘sir natijasidir. Ammo uning kuchayishi yoki kamayishida pedagogik-metodik omillar ham muhim rol o‘ynaydi.

1.1-jadval

Jurnalist talabalar ingliz tilini ijtimoiy media asosida o‘rganishda uchraydigan interferensiya tasnifi

Tur	Ta‘rifi	Sababi	Namuna	Yechim	Manba
Fonetik	Ona tili tovush tizimi ta‘siri bilan yuzaga keladigan talaffuz xatolari	Fonemalar farqi	journalism → [dʒʊrnəlizm]	Autentik audio mashqlar	Weinreich
Leksik	So‘zlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilish	Semantik farqlar	make photo → take a photo	Sinonim va kontekst tahlili	Corder
Grammatik	Ona tili strukturasi ta‘siri	Artikl va zamon tizimi farqi	She journalist → She is a journalist	Kontrastiv tahlil mashqlari	Selinker
Pragmatik	Kommunikativ vaziyatga mos bo‘lmagan ifodalar	Madaniy konvensiyalar farqi	Respected teacher! → Dear teacher!	Pragmatik mashqlar	Widdowson
Madaniy	Madaniy kodlarni noto‘g‘ri talqin qilish	Madaniyatlararo tafovut	How are you? → I’m fine.	Madaniy taqqoslovchi topshiriqlar	Krashen

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, jurnalist talabalar ingliz tilini ijtimoiy media asosida o‘rganish jarayonida interferensiya hodisalari ko‘p qirrali va murakkab xarakterga ega. Ular til tizimining turli darajalarida — fonetik, leksik, grammatik, pragmatik va madaniy sathlarda namoyon bo‘ladi. Har bir interferensiya turi o‘ziga xos sabablarga ega bo‘lib, til o‘rganuvchining ona tili strukturasi, madaniy tajribasidan yoki kommunikativ muhitdan kelib chiqadi.

Fonetik interferensiya, avvalo, tovush tizimlari o‘rtasidagi tafovut natijasida paydo bo‘ladi va jurnalistik faoliyatda talaffuzning aniqligini ta‘minlashga to‘sqinlik qiladi. Leksik interferensiya esa so‘zlarning semantik doirasi farqidan kelib chiqadi; bu holat jurnalist matnida noaniqlik va semantik ziddiyatlar tug‘diradi. Grammatik interferensiya o‘quvchining ona tilidagi strukturaviy modelni ingliz

tiliga ko‘chirish oqibatida yuzaga kelib, nutqning sintaktik silliqqligini buzadi.

Pragmatik interferensiya jurnalistning ingliz tilidagi ijtimoiy-madaniy konvensiyalarni to‘liq bilmasligi bilan bog‘liq bo‘lib, bu holat muloqot jarayonida rasmiylik darajasi, murojaat shakllari yoki nutq etiketi xatoliklariga sabab bo‘ladi. Madaniy interferensiya esa eng chuqur darajadagi ta‘sir shaklidir; u o‘quvchining madaniyatlararo tafakkur darajasiga bevosita bog‘liq. Jurnalistlar uchun bu kompetensiya alohida ahamiyatga ega, chunki u xalqaro ommaviy axborot makonida neytral, madaniy jihatdan mos va etika talablariga javob beradigan nutqni shakllantirish imkonini beradi.

Shunday qilib, interferensiyani o‘rganish nafaqat lingvistik xatoliklarni aniqlash, balki jurnalist talabalarni madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya va professional ingliz tilini ongli ravishda egallashga yo‘naltiruvchi metodik asos sifatida ham xizmat qiladi. Ushbu jarayonda kontrastiv tahlil, autentik ijtimoiy media materiallaridan foydalanish va refleksiv mashg‘ulotlar interferensiyani kamaytirishning eng samarali vositalari sifatida e‘tibor etiladi.

Biz yuqorida keltirib o‘tgan birinchi tur qiyinchiliklar “pedagogik-metodik qiyinchiliklar” bo‘lib, ular o‘qituvchi va ta‘lim jarayonining metodik jihatlarida yuzaga keladigan muammolardir hamda o‘quv jarayonini samarali tashkil etishga to‘sqinlik qiladi. Bu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun o‘qituvchilar ijtimoiy media vositalarini metodik asosda qo‘llashni, materiallarni moslashtirishni, baholash mezonlarini yangilashni va kommunikativ vaziyatlarga ko‘proq e‘tibor berishni o‘z kasbiy faoliyatining ajralmas qismi sifatida qabul qilishi lozim.

2.2-jadval. Pedagogik-metodik qiyinchiliklar tasnifi

Qiyinchilik	Kelib chiqish omili	Nazariy asos	Yechim
Metodik tayyorgarlik yetishmasligi	O‘qituvchining raqamli savodxonligi va metodik bilimlari pastligi	J.C. Richards — metodik to‘siqlar o‘qituvchidan kelib chiqadi	O‘qituvchilar uchun raqamli pedagogika va metodik treninglar tashkil etish
O‘quv materiallarini moslashtirish muammosi	Autentik ijtimoiy media materiallarining talaba darajasiga mos kelmasligi	D. Nunan — vazifaga asoslangan topshiriqlarda moslashtirish zarur	Materiallarni darajaga moslashtirish, qo‘llanmalar ishlab chiqish
Baholash mezonlarining nomutanosibligi	Ijodiy topshiriqlarni an’anaviy baholash mezonlari bilan o‘lchash	L. Vygotskiy — rivojlanish zonasi va baholash uyg‘unligi	Baholash mezonlarini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish
An’anaviy yondashuvga haddan tashqari tayanish	Grammatikaga yo‘naltirilgan yondashuv ustunligi	Littlewood — kommunikativ vaziyatni darsga olib kirish zarur	Kommunikativ va interfaol mashqlarga ko‘proq e‘tibor qaratish

Tadqiqot metodologiyasi

Pedagogik-metodik qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini kuchaytirish, o‘quv materiallarini moslashtirish, zamonaviy baholash mezonlarini joriy etish va kommunikativ yondashuvni kuchaytirish zarur. Masalan, autentik ijtimoiy media materiallari ko‘pincha talabalarining til darajasiga mos kelmaydi. Shu sababli o‘qituvchilar materiallarni soddalashtirish, izohli lug‘atlar va qo‘shimcha ko‘rsatmalar ishlab chiqish orqali ularni o‘quvchilarga qulay shaklda taqdim etishi kerak. Shu bilan birga, an’anaviy grammatik mashqlarni saqlab qolgan holda, ularni kommunikativ mashqlar bilan uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiqdir. Masalan, ijtimoiy media orqali muhokamalar, interaktiv rolli o‘yinlar va debatlar tashkil etish talabalarni real kommunikativ vaziyatlarga tayyorlaydi. Baholash uchun esa kommunikativ topshiriqlar, kontent yaratish, media loyihalar kabi faoliyat turlarini ham inobatga oladigan yangi baholash mezonlari ishlab chiqilishi zarur.

Ikkinchi tur “shaxsiy-psixologik qiyinchiliklar” bo‘lib, ular til o‘rganishda muhim to‘siqlardan biri hisoblanadi. Ular, asosan, motivatsiya yetishmasligi, xato qilishdan qo‘rquv, ishonchsizlik va raqamli savodxonlikdagi bo‘shliqlar orqali namoyon bo‘ladi. Ingliz tilini ijtimoiy media orqali o‘rganishda bu omillar yanada kuchliroq ko‘zga tashlanadi, chunki talabalar global auditoriya qarshisida ochiq chiqish qilishga majbur bo‘ladilar. Bu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini oshirish, qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish, raqamli ko‘nikmalarni shakllantirish va o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

2.3-jadval. Shaxsiy-psixologik qiyinchiliklar tasnifi

Qiyinchilik	Kelib chiqish omili	Nazariy asos	Yechim
Motivatsiyaning pastligi	Talabanning ichki rag'batining sustligi yoki qisqa muddatli motivatsiya	Gardner va Lambert — motivatsiya til o'rganishning asosiy omili	Talabalarni rag'batlantirish, ularni media loyihalarga jalb etish
Xato qilishdan qo'rquv	Ijtimoiy media orqali keng auditoriya oldida chiqishdan qo'rqish	J.C. Richards — kommunikativ vaziyatdagi qo'rquv eng katta to'siq	Xatoni o'rganish jarayonining tabiiy qismi sifatida tushuntirish
Ishtirokdagi ishonchsizlik	Til o'rganishda "foreign language anxiety" holatining mavjudligi	Horwitz, Horwitz va Cope — "foreign language anxiety" nazariyasi	Qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish, kichik guruhlar orqali bosqichma-bosqich tayyorlash
Raqamli savodxonlikdagi bo'shliqlar	Texnologiyalardan samarali foydalana olmaslik	Kukulska-Hulme — mobil va raqamli vositalar til o'rganishni qo'llab-quvvatlaydi	Raqamli savodxonlikni rivojlantirish uchun mashqlar ishlab chiqish

Shaxsiy-psixologik qiyinchiliklarni bartaraf etish jarayoni o'quvchilarning ichki motivatsiyasini rag'batlantirish, xatoga ijobiy yondashish, qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish va raqamli savodxonlikni oshirish orqali samarali amalga oshirilishi mumkin. Bu tavsiyalar ilmiy asosga ega bo'lib, Horwitz, Horwitz va Cope ta'kidlaganidek: "Foreign language anxiety — chet tili tashvishi — talabalarni darsdagi faol ishtirokdan chetlashishga olib keladi" [4]. Demak, talabalarni kichik guruhlarda ishlashga jalb qilish, darslarda qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhit yaratish va ularga bosqichma-bosqich katta auditoriya oldida chiqish imkonini berish zarur. Yana bir asosiy jihat motivatsiyadir. "Tilni muvaffaqiyatli o'rganishning eng muhim omili ichki motivatsiyaning kuchli bo'lishidir" [5]. Talabalarning motivatsiyasini oshirish uchun ularni ingliz tilidagi ijtimoiy media loyihalariga jalb etish, blog yuritish, xalqaro onlayn muhokamalarda ishtirok etishga rag'batlantirish lozim.

Tahlil va natijalar

Ingliz tilini ijtimoiy media orqali o'qitishda uchraydigan muammolar ichida texnologik-tashkiliy qiyinchiliklar alohida o'rin tutadi. Bu qiyinchiliklar bevosita ta'lim jarayonining tashkiliy jihatlari va raqamli vositalardan foydalanish imkoniyatlari bilan bog'liqdir. Bu turdagi qiyinchiliklarni izohlashda raqamli ta'lim bo'yicha ko'plab tadqiqotlar mavjud. Masalan, K. Hulme mobil va raqamli vositalardan foydalanish samaradorligini ta'kidlagan bo'lsa-da, ularni noto'g'ri tashkil etish yoki texnik jihatdan cheklanish ta'lim sifatini pasaytirishini qayd etadi. Shuningdek, Richards va Rodgers ham o'quv jarayonida texnologiyalarni integratsiya qilishda tashkiliy moslashuv va o'quv materiallari tanlovi muhimligini ta'kidlagan.

2.4-jadval. Texnologik-tashkiliy qiyinchiliklar tasnifi

Qiyinchilik	Kelib chiqish omili	Nazariy asos	Yechim
Texnik infratuzilma muammolari	Internet tezligi pastligi, platformalarning beqaror ishlashi	Kukulska-Hulme — texnik cheklovlar ta'lim samaradorligini pasaytiradi	Texnik infratuzilmani mustahkamlash, internet tezligini oshirish
Kontentni filtrlash va tanlash qiyinchiligi	Ijtimoiy mediada mavjud materiallarning ko'pligi va sifatsizligi	Richards va Rodgers — materiallarni tanlash va moslashtirish zarur	O'qituvchi tomonidan kontentni saralash va moslashtirish
Axborot xavfsizligi va mualliflik huquqi	Onlayn kontentdan foydalanishda mualliflik huquqi va xavfsizlik muammolari	UNESCO — axborot xavfsizligi va media savodxonlik ta'lim jarayonining ajralmas qismi	Axborot xavfsizligi va mualliflik huquqlari bo'yicha qo'shimcha treninglar
Chalg'ituvchi omillar	Ijtimoiy mediada ko'ngilochar kontentning	Vygotskiy — talabanning rivojlanish muhitini to'g'ri	O'quvchilarda media madaniyatni

	haddan tashqari ko'pligi	tashkil qilish zarur	shakllantirish, darsni maqsadli tashkil etish
--	--------------------------	----------------------	---

Jadvalda keltirilgan texnologik-tashkiliy qiyinchiliklar ingliz tilini ijtimoiy media asosida o'qitishda raqamli vositalar, texnik infratuzilma va tashkiliy jarayonlarning o'zaro muvofiqlashuv darajasiga bog'liqdir. Ushbu qiyinchiliklar o'quv jarayonining texnik, tashkiliy va kognitiv jihatlariga bevosita ta'sir qiladi.

Jurnalistika yo'nalishidagi talabalar uchun ingliz tili nafaqat akademik fan, balki kasbiy vosita sifatida muhimdir. Shu bois ijtimoiy media orqali til o'qitish ularning kasbiy ehtiyojlariga bevosita mos keladi: matn tahlili, axborot manbalarini solishtirish, onlayn intervyular olib borish va xalqaro axborot maydonida faol ishtirok etish kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. Kern [6], Blattner va Fiori [7] tadqiqotlarida qayd etilishicha, ijtimoiy media vositalari til o'rganishni ko'proq madaniyatlararo hamkorlik va autentiklik asosida boyitadi.

Yuqorida tahlil etilgan psixologik, metodik va texnologik qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun ingliz tilini o'qitishda bir yo'nalishli tizim emas, balki bir necha kompleks yondashuvlarning integratsiyasi muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy didaktik tajribalar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilini ijtimoiy media asosida o'qitishda grammatika-tarjima, audiolingval, kognitiv, vaziyatli (*situational*), vazifaga yo'naltirilgan (*task-based*) va kommunikativ yondashuvlarning uyg'un qo'llanishi o'quv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Kumaravadivelu "post-metod" davrida o'qituvchi uchun yagona universal metod mavjud emasligini, aksincha, o'qituvchi o'z talabalarining ehtiyoji, konteksti va maqsadlariga qarab turli yondashuvlarni moslashtirishi kerakligini ta'kidlaydi [8]. Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy media asosida ta'limni tashkil etishda ham turli metodik konsepsiyalarni integratsiya qilish talab etiladi.

Tadqiqotchilar J. Richards va T. Rodgers til o'qitish nazariyasini tahlil etar ekan, zamonaviy yondashuv va metodlarning barchasi bevosita yoki bilvosita tilning tabiati hamda til o'rganish jarayoniga oid turli nazariy qarashlarga asoslanishini ta'kidlaydilar. Ular quyidagilardir: "strukturaviy (*structural view*), funksional (*functional view*) hamda interaktiv (*interactional view*) qarashlar" [9].

Birinchisi — strukturaviy qarash bo'lib, u tilni grammatik birliklar, qoidalar va shakllar tizimi sifatida ko'radi. Bu yondashuvga ko'ra, tilni o'rganish jarayoni uning struktur elementlarini to'g'ri o'zlashtirish orqali amalga oshadi.

Ikkinchisi — funksional qarash bo'lib, bunda til muloqot vositasi sifatida baholanadi; ya'ni til birliklari ma'lum ijtimoiy vaziyatlarda maqsadga yo'naltirilgan tarzda ishlatiladi. Ushbu qarashga binoan, o'qitish jarayoni tilning kommunikativ funksiyalarini o'zlashtirishga qaratiladi.

Uchinchisi esa interaktiv qarash bo'lib, u tilni insonlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir, ijtimoiy munosabat va muloqot vositasi sifatida talqin etadi. Mazkur yondashuvga ko'ra, tilni o'rganish jarayoni faqat bilim olish emas, balki ijtimoiy faoliyatda ishtirok etish va muloqot orqali o'zaro tushunishni shakllantirish jarayonidir.

Biroq, bizningcha, bu yondashuvlar orasida kommunikativ til o'qitish yondashuvi (*Communicative Language Teaching* — CLT) ayniqsa samarali hisoblanadi. Ushbu yondashuvning markazida o'quvchining haqiqiy muloqot jarayonida tilni faol qo'llash qobiliyatini rivojlantirish yotadi.

N. Chomsky, I.B. Lutfullayevich, R. Bell, V.M. Vyatutnev, A.A. Zimmaya, V.G. Kostomarov, O.D. Mitrofanova, M. Byram, V.L. Skalkin, D. Slobin va A.D. Shvitser kabi olimlar kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda kommunikativ yondashuvning muhimligini va usullarini ta'kidlab o'tganlar. Ular "til o'rganuvchilarni muloqot qilishga, o'z fikrlarini erkin ifoda etishga va turli muloqot sharoitlarida o'zlarini ishonchli his qilishga o'rgatish" muhimligini ta'kidlashadi [10].

Xulosa. Ushbu tadqiqot doirasida ijtimoiy media vositalari asosida ingliz tilini o'qitishda vujudga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun mexanizm ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki hozirgi kunda ijtimoiy media platformalari til o'rganish jarayonining muhim kommunikativ muhitiga aylangan bo'lsa-da, o'qitish jarayonida bir qator pedagogik-metodik, shaxsiy-psixologik hamda texnologik muammolar mavjud. Bu muammolarni samarali hal etish ta'limni nazariy, metodik va texnologik jihatdan uyg'unlashtiruvchi mexanizm orqali amalga oshirishni talab etadi. Shu bois ushbu tadqiqotda ingliz tilini jurnalist talabalarga ijtimoiy media asosida o'qitish jarayonini tizimli boshqarish, refleksiya qilish va takomillashtirishga xizmat qiluvchi integrativ mexanizm ishlab chiqildi. Mazkur mexanizm o'qitishning nazariy poydevorini, texnologik jarayonini, metodik siklini va texnik jihatdan ijodiy bosqichlarini yagona didaktik tizimda birlashtiradi. Ijtimoiy media asosida ingliz tilini o'qitish mexanizmining nazariy asoslari zamonaviy ta'lim paradigmasining kommunikativ, konstruktivistik va

raqamli pedagogika yoʻnalishlariga tayangan holda shakllanadi. Ushbu mexanizmning markazida taʼlimni raqamli kommunikatsion muhitga moslashtirish, oʻquvchini faol subyekt sifatida shakllantirish va autentik til muhitida muloqot qilish imkoniyatini yaratish gʻoyalari yotadi. Avvalo, mexanizmning nazariy poydevori kommunikativ yondashuv Hymes, Canale va Swain tamoyillariga asoslanadi. Mazkur yondashuv tilni oʻrganish jarayonini shunchaki grammatik bilimlarni egallash emas, balki ijtimoiy kontekstda muloqot qila olish salohiyatini shakllantirish jarayoni sifatida talqin etadi. Ijtimoiy media esa ana shu kommunikativ muhitni tabiiy tarzda taʼminlab beradi. Bu yerda til oʻrganuvchi real auditoriya bilan fikr almashadi, oʻz nutqini situativ sharoitga moslashtiradi va interaktiv tajriba orttiradi. Mexanizmning ikkinchi nazariy tayanchi Piaget va Vygotskiyning konstruktivistik taʼlim nazariyasidir. Mazkur nazariya taʼlim jarayonida bilim tayyor shaklda berilmasligi, balki oʻquvchi tomonidan mustaqil ravishda ijtimoiy muhitda yaratilishi lozimligini taʼkidlaydi. Ijtimoiy media vositalari konstruktivistik oʻqitish uchun ideal platforma boʻlib, ular orqali talabalar oʻz gʻoyalarni ifodalaydi, fikr almashadi, tahrir qiladi va oʻzaro taqqoslaydi. Shunday qilib, oʻrganish jarayoni faol, ijodiy va koʻpkanalli kommunikatsiyaga asoslanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. — Cambridge: Cambridge University Press, 2001. — P. 22.
2. Nunan D. Task-Based Language Teaching. — Cambridge: Cambridge University Press, 2004.
3. Джусупов М. Социолингвистические и лингвистические проблемы языка как средства общения и предмета изучения. — 2024.
4. Horwitz E.K., Horwitz M.B., Cope J. Foreign Language Classroom Anxiety // The Modern Language Journal. — 1986. — Vol. 70. — No. 2. — P. 125–132.
5. Gardner R.C., Lambert W.E. Attitudes and Motivation in Second-Language Learning. — Rowley: Newbury House, 1972.
6. Kern R. Language, Literacy, and Technology. — Cambridge: Cambridge University Press, 2016.
7. Blattner G., Fiori M. Facebook in the Language Classroom: Promises and Possibilities // International Journal of Instructional Technology. — 2009. — Vol. 8. — No. 3.
8. Kumaravadivelu B. The Postmethod Condition: Emerging Strategies for Second/Foreign Language Teaching // TESOL Quarterly. — 1994. — Vol. 28. — No. 1. — P. 27.
9. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. — Cambridge: Cambridge University Press, 2001.